

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MURODOVA DILNAVOZ NIZOMOVNA

FENIMOR KUPER ROMANLARIDA HINDULAR OBRAZI POETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Murodova Dilnavoz Nizomovna

Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazi poetikasi..... 3

Муродова Дилнавоз Низомовна

Поэтика образа индейцев в романах Фенимора Купера..... 25

Murodova Dilnavoz Nizomovna

Poetics of the Indian Image in the Novels of Fenimore Cooper..... 47

E'lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MURODOVA DILNAVOZ NIZOMOVNA

FENIMOR KUPER ROMANLARIDA HINDULAR OBRAZI POETIKASI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4097 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning
vebsahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Muxammedova Nilufar Eliboyevna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zohid Yakubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ikromxonova Feruza Ikromovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi
DSC 03/30.12.2019 Fil 27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" aprel soat 10⁰⁰ dagi
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
21A-uy tel: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; email:uzswlu_info@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida
tanimish mumkin (1167 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa
tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "24" mart da 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M.Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

X.B.Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
f.f.d., professor

J.A.Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida globallashuv degan tushuncha shakllanib, bu sohada o‘rganiladigan mavzular ko‘lami yanada ortib bormoqda. Turli davrlarda turli janrlardagi badiiy asarlarda turlicha qiyofalarda namoyon bo‘lgan Amerika hindulari obrazi Amerika va jahon adabiyotshunosligida bugungi kungacha o‘rganilishda davom etayotgan mavzu hisoblanadi. Hindular obrazi misolida nafaqat Amerika xalqlari, qolaversa, butun dunyo xalqlari o‘zlarining milliy-ma’daniy qadriyatlariga bo‘lgan hurmat hissini yanada kuchliroq tuyadilar. Amerika hindularining badiiy adabiyotda ideallahgan qahramonlar sifatida namoyon bo‘lishi eng ko‘p hindular obrazini yaratgan adib Fenimor Kuper nomi bilan bog‘liq. Zero, bu yozuvchi o‘z asarlarida hindularga yangicha munosabatda bo‘ldi va ularni ideallashtirdi. Kuper yaratgan ijobiy, salbiy, murakkab va o‘zgaruvchan hindular obrazi poetikasini o‘rganish, ular tashigan irqlararo do‘stlik, sevgi va nikoh rishtalari kabi mavzularni, oliv insoniy xislatlarni badiiylik mezonlari asosida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida hindular obrazi ko‘plab ijodkorlarning asarlarida turlicha yondashuvlarga asoslanib o‘rganilmoqda. Xususan, XIX asr boshlarida Amerika adabiyotiga kirib kelgan roman janrining Yevropa romanchiligidan farqlilagini ta’minlash uchun hindularning voqealar markazida oliyjanob shaxslar sifatida gavdalanishi adabiyotshunoslik uchun har doim dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. Amerika hindulari yo‘q bo‘lib ketayotgan siyosiy tuzum qurbanlari, tabiat fidokorlari, vatanparvar shaxslar, mahoratli ovchi-merganlar va ko‘plab oliv insoniy xislatlar sohiblari sifatida ilmiy izlanish mavzulariga aylanayotganiga qaramasdan Kuper yaratgan hindular obrazining tadqiqot predmeti sifatida ilmiy tahlilga tortilmagan jihatlari ko‘p. Bu esa, o‘z o‘rnida, adib yaratgan hindular obrazining yozuvchining voqelikka munosabati bilan uyg‘un tarzda ko‘proq o‘rganish vazifasini adabiyotchilar zimmasiga yuklaydi.

Mamlakatimizda badiiy asarlarni yozuvchining voqelikka munosabati va badiiy mahorati bilan uyg‘unlikda turli tadqiqot metodlariga tayanib tahlil qilishga doir keng imkoniyatlар yaratilmoqda. Milliy madaniyatimizni, qadriyatlarimizni yanada takomillashtirish, xalqimiz ongiga vatanga muhabbat, halollik, mardlik, vijdonlilik kabi insoniy tushunchalarni o‘zbek adabiyotshunosligida chet el yozuvchilarini tadqiq etish orqali singdirish ustuvorlik kasb etadi. Fenimor Kuper romanlaridagi hindu va boshqa xalqlarning hamjihatlikda hayot kechirishiga erishish g‘oyasi ko‘p millatli yurtimizda turli elat hamda millatlarning tinch-totuv hayoti bardavomlilagini taminlashga xizmat qiladi. Bunda adabiyotning insonlarni to‘g‘ri yo‘lga isloh qilishga qaratilgan oliv vazifasi davlatimizning ijtimoiy va siyosiy ravnaqiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Zero, “adabiyot va san’at qudratli kuchga ega. Lekin mana shunday buyuk ilohiy kuchdan biz mamlakatimiz el-yurtimiz

ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanishimiz”¹ darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 17-fevraldaggi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Jahon adabiyotshunosligida hindu obrazlari tahliliga bag‘ishlab ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Amerika adabiyotida yaratilgan hindu obrazlari va ularga bo‘lgan turlicha munosabatlarga doir tadqiqotlar A.Keizer, E.Zolla, N.B.Blek, A.S.Veidmen, M.Niemeyer² kabi olimlarning izlanishlarida namoyon bo‘lgan. Xususan, Keizer va Zolla turli janrlardagi badiiy asarlarda aks etgan hindu obrazlarini umumiyl tahlil ostiga olgan bo‘lsa, Blek va Veidmen o‘z tadqiqotlarida hindular hamda oq

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлларни вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи, 2017. 4 август.

² Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – 312 p.; Zolla E. The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1973. – 312 p.; Black N.B., Weidman A.S. White on Red: Images of the American Indian. – New York: Associated Faculty Press Inc., 1976. – 292 p.; Niemeyer M. From Savage to Sublime (and partway back): Indians and Antiquity in early nineteenth-century American literature // Transatlantica, 2015. – № 2 // <https://doi.org/10.4000/transatlantica.7727>.

tanlilar o‘rtasidagi munosabatning badiiy asarlardagi tasviriga ahamiyat qaratishadi. Niemeyer esa badiiy adabiyotda hindular obrazining salbiy qiyofadan ijobil tomonga o‘zgarish omillarini o‘rgangan.

Rus olimlaridan A.K.Savurenok, V.N.Sheyner, T.Y.Vvedenskaya, E.Y.Rafikova, T.G.Strukova, Y.Y.Roze, S.P.Smislov³lar Fenimor Kuperning ijodiy yo‘li, uning dengiz va Yevropa safari haqida yozilgan asarlari, Amerika romanchiligida yozuvchining o‘rni va adibning tarixiy romanlariga doir tadqiqotlar olib borishgan.

Fenimor Kuper va uning hindu obrazlari o‘zbek kitobxonlariga Kuperning o‘zbek tilidagi tarjima asarlari⁴, xususan, “Ko‘n paypoq ertaklari” pentalogiyasining birinchi kitobi “Chingachguk fojiasi” asarining o‘zbek tilidagi tarjimasi va bu roman asosida suratga olingan videofilm orqali yaxshi tanish. O‘zbek adabiyotshunosligida Kuperning hindular obrazi tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilgan ishlar hali ko‘p bo‘lmasada, Kuperning hayot va ijod yo‘li O.Qayumov, Q.Azizov, Sh.Sayidova, M.Yoriyeva, N.Qurbanova, M.Temirboyeva, N.Muhammedova⁵ tomonidan qisman o‘rganilgan. Xususan, O.Qayumov va Q.Azizovlar XVIII-XX asr chet el adabiyoti tarixiga bag’ishlangan kitobida Fenimor Kuperi Amerikada tarixiy roman janrining asoschisi sifatida qisman o‘rganishdi hamda uning ijodiga to‘xtalib o‘tishdi.

Garchi adabiyotshunoslarda badiiy asarlardagi hindular tasviri ko‘plab jahon adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganib kelinayotgan bo‘lsada, Kuper asarlardagi, xususan, “Ko‘n paypoq ertaklari” pentalogiyasida aks etgan hindu obrazlarining barcha xususiyatlari, hindu ayollar obrazlari, hindular obrazi dinamikasi to‘liq ochib berilmagan va shu sababli hanuzgacha tadqiq etilayotgan mavzu bo‘lib

³ Савуренок А.К. Американский исторический роман XIX в. в свете англо-американских противоречий. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1948. – 294 с.; Савуренок А.К. Критика американского буржуазного общества в творчестве Фенимора Купера. Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 1953. – 21 с.; Шейнкер В.Н. Исторический роман Джеймса Фенимора Купера и проблема развития американской литературы первой половины XIX в. Дисс. ... док. филол. наук. – Ленинград, 1971. – 753 с.; Введенская Т.Ю. Европейская трилогия Д.Ф.Купера и ее роль в творческой эволюции писателя. Дисс. ... канд. филол. наук. – Иваново, 1984. – 205 с.; Рафикова Э.Е. Публицистическая традиция в романах Дж. Фенимора Купера о современности. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1986. – 212 с.; Струкова Т.Г. Жанр морского романа и его модификации в английской литературе XIX-XX веков. Дисс. ... док. филол. наук. – Москва, 1999. – 396 с.; Розе Е.Е. Художественные особенности дилогии Д.Ф.Купера о современности “Домой” и “Дома”. Дисс. ...канд. филол. наук. – Великий Новгород, 2004. – 178 с.; Смыслов С.П. Лексика, отражающая национально-культурную специфику коренных народов США как переводческая проблема: на материале произведений Дж.Ф.Купера. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 160 с.

⁴ Kuper J.F. Chingachguk fojiasi yoxud Saskuixanna manbalarida (E. Mirobidov tarjimasi). – Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2019. – 528 b.; Kuper J.F. Izquvar (E.Mirobidov tarjimasi). – Toshkent: Qaqnus media, 2020. – 464 b.

⁵ Азизов К., Каюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 332 б.; Sayidova Sh. Fenimor Kuper asarlari tarjimalarida uslubiy vositalarning berilishi muammosi. Magistr. ... diss. – Buxoro, 2011. – 80 б.; Yoriyeva M.U., Kurbonova N.R. Jeyms Fenimor Kuperning ijod yo‘li bosqichlari // “Adabiyotshunoslilik va tarjimashunoslilikning dolzarb muammolar: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslilik, uslubshunoslilik va tilshunoslilik masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (- B. 86-89). – Buxoro, 2012. – 224 б.; Yoriyeva M.U., Kurbonova N.R. James Fenimore Cooper – “American Walter Scott” // International Journal of Inclusive and Sustainable Education, 2022. – № 1 (4). – P. 71-73.; Temirboyeva M., Muhammedova N. Leatherstocking Tales is a series of five novels by Cooper // Innovation in the Modern Education System, 2023. – № 3 (30). – P. 71-74; Temirboyeva M., Muhammedova N. Analysis of James Fenimore Cooper’s novels // Научный фокус, 2023. – № 1 (1). – P. 1690-1695.

kelmoqda. Shu sababli ham mazkur tadqiqotimizda shu jihatlarga ahamiyat qaratdik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi va dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi o‘z ichiga Amerika adabiyotida Fenimor Kuper asarlarida aks etgan hindular obrazni poetikasini tahlil qilish, nazariy asoslash va bunda yoritilish omillari asosida yozuvchi mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIX asr boshlarida yozuvchilarning hindu obraziga yangicha ijobiy munosabat bilan murojaatini jahon adabiyotshunoslari talqinida ilmiy asoslash va Amerika adabiyotida tasvirlangan hindu obrazlarining o‘ziga xos farqli hamda umumiy jihatlarini turli janrlardagi asarlar misolida nazariy dalillash;

Fenimor Kuperning “The Leatherstocking Tales” (“Ko‘n paypoq ertaklari”) pentalogiyasi romanlaridagi hindularning o‘zaro va irqlararo munosabatlarini, dunyoqarashlarini tahliliy o‘rganish bilan birga hindular obrazni poetikasini ochib berish;

Hindular obrazini roman syujeti voqealarida tasvirlashda Fenimor Kuperning ijodiy mahorati va uslubiy yondashuvlarini aniqlash;

Pentalogiyadagi romanlar kesimida hindu ayollar obrazining shakllanishini, ularning ustivor xususiyatlarini va ular asosida ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil asosida o‘rganish;

Pentalogiyadagi hindularni tabiatga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ijobiy, salbiy, murakkab va o‘zgaruvchan obrazlar sifatida tadqiq etish, romanlararo obraz dinamikasini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida Fenimor Kuperning “Ko‘n paypoq ertaklari” (“The Leatherstocking Tales”) pentalogiyasiga kiruvchi “Chingachguk fojiasi” (“Pioneers”) (1823), “So‘nggi Mohikan” (“The Last of the Mohicans”) (1826), “Preriya” (“The Prairie”) (1827), “Izquvar” (“The Pathfinder”) (1840), “Ovchi” (“The Deerslayer”) (1841) romanlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini Fenimor Kuper asarlarida hindular obrazni tasviri, obrazni aks ettirishda muallif qo‘llagan uslublar, obraz timsolida aks etgan g‘oyalarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida biografik, sotsiologik, tarixiy-qiyosiy, germenevtik tahlil usullardan foydalilanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fenimor Kuperning tarixiy romanlarida hindular obrazining tarixiy faktlarga asoslangan badiiy qiyofasi tabiatni himoya qilish uchun kurashgan ideal obraz va ideal qahramonlar sifatida namoyon bo‘lishi hamda buning Amerikaning bugungi betakror tabiatiga ta’siri tahlil qilingan;

yillar mobaynida adabiyotda vahshiy va yirtqich kishilar sifatida tasvirlangan hindularning XIX asr boshlariga kelib olıyjanob shaxs obrazlari sifatida aks etishi hamda bunga sabab bo'lgan omillar hindular aks etgan turli janrdagi asarlar misolida yoritilgan;

"Ko'n paypoq ertaklari" pentalogiyasida hindularning badiiy to'qimaga singdirilgan real qiyofasini yaratish, erkak va ayol hindularga yozuvchi tomonidan turlicha munosabatda bo'lish, irqlararo tinch-totuv hayotni ta'minlovchi irqlararo do'stlik, yaqinlik va nikoh rishtalarini bog'lashga doir g'oyalarni targ'ib qilishda adibning badiiy mahorati hamda individual uslubiyati romanlar negizida ochib berilgan;

Fenimor Kuperning "Ko'n paypoq ertaklari" pentalogiyasiga kiruvchi romanlarda hindular obrazining xususiyatlariga tayanib obrazlarning ijobiyligi, salbiyligi, murakkabliligi, o'zgaruvchanligi, shuningdek, o'xhash va farq qiluvchi xususiyatlari yoritilish bilan birga romanlararo obraz dinamikasi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali o'zbek adabiyotshunosligida ushbu mavzudagi asarlar tadqiqining boshlanishi va kengayishiga, shuningdek, ularni batafsil o'rganilishiga, ingliz adabiyoti, jahon adabiyoti fanlaridan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Fenimor Kuperning hindu obrazlariga munosabati masalasi ko'tarilib, bu borada jahon va Amerika adabiyotida yozuvchining tutgan o'rni, ijodiy-individual uslubi yoritilgan;

Amerikada keltirilgan davrda hindularning ijtimoiy hayot tarzining badiiy tasviri, insoniyatga o'rnak bo'ladigan hindularga xos vatanzarvarlik, sodiqlik, halollik kabi xususiyatlar Fenomor Kuper romanlarida tarix haqiqati va badiiy to'qima uyg'unligida aks etgani ilmiy nazariy ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va tadqiqot davomida qo'llanilgan usullarning qo'yilgan maqsadga mosligi, nazariy ma'lumotlarning respublika va xorijiy ilmiy adabiyotlarga tayangani, tanlab olingan badiiy asarlarning tadqiqot predmetiga mos kelishi, nazariy fikr va xulosalar biografik, sotsiologik, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlari asosida yaratilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyatga tatbiq etilgani, natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan adabiyotshunoslikga oid darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish ishiga mazkur tadqiqot natijalarining tadbiq etilishida ko'rindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, chiqarilgan xulosalar jahon adabiyotshunosligida har doim muhimlik kasb etib kelgan hindular obrazining badiiy asarlardagi xususiyatlarini o'ganishga doir mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalar “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Jahon adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Amerika adabiyoti” fanlari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining filologik yo‘nalishlardagi talabalariga mo‘ljallangan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash, ma’ruzalar o‘qish, seminarlar tashkil etish, shuningdek, adabiyot fani bo‘yicha akademik litsey va umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilariga jahon adabiyotining durdona asarlarini mutolaa qilishga qiziqtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazi poetikasi mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Fenimor Kuper asarlarida hindular obrazi tasviri, hindu qahramonlarning xususiyatlari, hayotga doir qarashlari, o‘zaro va boshqa irq vakillari bilan munosabatlarining estetik tamoyillar doirasidagi ilmiy materiallari, uzoq yillar mobaynida adabiyotda vahshiy va yirtqich kishilar sifatida tasvirlangan hindularning XIX asr boshlariga kelib oliyjanob shaxs obrazlari sifatida aks etishi hamda bunga sabab bo‘lgan omillar hindular aks etgan asarlar misolida yoritilgan faktlardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan F-7-13 raqamli “Adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi” mavzusidagi amaliy loyihada keng foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining 2024-yil 4-martdagi 4/11-2598-son ma’lumotnomasi). Natijada jahon adabiyotida doimo muhim ahamiyat kasb etgan hindu obrazlari haqidagi ma’lumotlar mazkur loyihaning mazmun-mohiyatini boyitishga erishilgan;

muallif badiiy mahorati va uslubi masalalariga doir dissertant tahlili hamda talqini asosida ochib berilgan ilmiy natijalar hamda materiallardan Qarshi davlat universitetining 5111400-Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun tavsiya etilgan “Stylistics” nomli o‘quv qo‘llanma bandlarini bajarishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug‘i). Natijada ilmiytadqiqot ishining umumiylarini va amaliy takliflari “Stilistika”, “Ingliz adabiyoti” va “Amerika adabiyoti” fanlariga doir materiallarni mazmunan boyitishda ikkilamchi manba bo‘lib xizmat qilgan;

Amerika adabiyotida timsoliy asarlardan biri bo‘lgan Jeyms Fenimor Kuperning “Ko‘n paypoq ertaklari” pentalogiyasida ideallashtirilgan hindu ayollari obrazi tasviri, ularga xos xususiyatlar, hindu ayollari obrazini yaratishda yozuvchi yondashuvi kabi jihatlarga qaratilgan dissertant tadqiqidan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-yil 1-iyundan 2025-yil 31-maygacha bajarilishi mo‘ljallangan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining 2024-yil 2-iyuldaggi 01/376 son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot ishi natijalarining

loyihada qo'llanilishi natijasida o'quv materiallari asosida hindu ayollarini obrazlarining badiiy asarlarda namoyon bo'lishi, ularning badiiy obraz sifatida tutgan o'rni va hindu ayollarini tasvirlashda yozuvchi mahorati kabi masalalarning ahamiyatini o'rganish hamda tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi dissertatsiyaning ilmiy yangiliklaridan amaliy faoliyatda foydalanib kelmoqda. Xususan, dissertatsiyada Fenimor Kuperning tarixiy romanlarida hindular obrazining tarixiy faktlarga asoslangan badiiy qiyofasi ideal obraz va ideal qahramonlar sifatida namoyon bo'lishi tahlil qilingani jahon adabiyotshunosligida kuzatilayotgan adabiy rivojlanishlarning ilmiy-nazariy natijalari bilan tanishish imkonini berdi. Fenimor Kuperning "Ko'n paypoq ertaklari" pentalogiyasiga kiruvchi romanlarda hindular obrazining ijtimoiy xususiyatlariga tayanib obrazlarning ijobiyligi, salbiyligi, murakkabliligi, o'zgaruvchanligi, shuningdek o'xhash va farq qiluvchi xususiyatlari yoritilish bilan birga romanlararo obraz dinamikasi dalillanganligi ilmiy tadqiqotning muhim yangiliklaridan biri bo'lish bilan bir qatorda jahon adabiyotshunosligidagi globallashuv jarayonida o'zbek adabiyotshunosi sifatida tadqiqotchining ishtirokini ta'minlaydi. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 22-oktabrdagi 01-03/877-son ma'lumotnomasi). Mazkur tadqiqotdagagi ilmiy yangiliklar va vazifalar asosidagi natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ustuvor yo'l xaritalari, dasturlari, targ'ibot tadbirlari va boshqa amaliy yo'nalishlarida foydalanib kelinmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dessertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika jurnallarida va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan, shuningdek, 1ta o'quv qo'llanma chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 158 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqotning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo'llanilgan metodlar, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobি “**Amerika adabiyotida hindular obrazi tadriji va takomili**” deb nomlangan. Ushbu bobning “*Hindular obrazi jahon adabiyotshunoslari talqinida*” nomli birinchi faslida adabiyotda aks etgan hindu obrazlarining adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilishi, bu obrazga nisbatan turlicha yondashuvlar, mahalliy amerikaliklarga turli davrlarlarda yozuvchilar tomonidan turlicha munosabatda bo‘linishi kabi jihatlar xususida so‘z yuritiladi. XIX asr boshlaridanoq mahalliy Amerika xalqlari bo‘lgan hindularning adabiyot va san’atda muhim ahamiyat kasb etishining ikkita muhim sababi bor edi. Birinchidan, Amerikada madaniy millatchilikning yuqori darajaga ko‘tarilishi⁶, buning natijasida 1812-yilda Britaniya imperiyasidan ajralib mustaqil bo‘lganligi, ikkinchidan esa, Amerika adabiyoti uchun yangi janr bo‘lgan romanning paydo bo‘lishi bo‘ldi. Millat vakillari har sohada o‘z mustamlakachilaridan farq qilib turadigan o‘ziga xoslikka asos solishga intilishardi va bu intilishlar adabiyot hamda san’at sohasida ham namoyon bo‘ldi⁷. Zero, aynan san’at va adabiyot millatning ulug‘vorligini, qadr-qiyamatini ko‘z-ko‘z eta oladidigan tarmoq edi.

Italiyadagi Genuya universitetida Amerika adabiyoti bo‘yicha professor Elemir Zolla hindularni alohida o‘rganib, “Yozuvchi va shamanlar: Amerika hindularining shakllanishi” (“The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian”) (1969) nomli asarini yozdi. E.Zolla Shimoliy Amerika hindularini ular istiqomat qilgan hududdagi manzara, xususan, keng ko‘llar, cheksiz o‘rmonlar, ulug‘vor daryolar va tekisliklardan ayro tasavvur etib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Shu sababli ham yozuvchi hindularning badiiy adabiyotda shakllangan obrazlarining asosiylar xususiyatlari ular yashaydigan maskan va uning tabiatini bilan hamohang tarzda namoyon bo‘lishini alohida e’tirof etadi⁸. Rostdanda, tabiat va hindular mavzusini bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Hindular obrazi yaratilgan asarlarning aksariyatida tabiat effekti, albatta, bor.

Amerika adabiyotida hindularni o‘rgangan yetuk taqdiqotchilardan yana biri – bu amerikalik professor Albert Keyzerdir. U o‘zining “Amerika adabiyotida hindular” (“The Indians in American literature”) (1933) nomli asarida Amerika adabiyotida tasvirlangan hindular obrazi mazkur qabilalar, ular yashaydigan hudud geografiyasi va tarixi haqida qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini yozadi. Garchi hindular nisbatan qisqa davrda dolzarb ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, Amerikada ularga bag‘ishlangan asarlar shu paytgacha yaratilgan asarlar ichida eng asl nazmiy va mashhur nasriy asarlar xazinasini tashkil etadi⁹. Darhaqiqat, hindularning adabiyotda ideallashuvi uzoq davom etmadi, shunga qaramasdan shu qisqa vaqt mobaynida yaratilgan

⁶ Honour H. The new golden land: European images of America from the discoveries to the present times. – New York: Pantheon Books, 1975. – 299 p.

⁷ Jayasinghe M.K. The significance of Native Indian Presence in American Literature // Asian Review of Social Sciences. – 2022. – № 11 (1). – P. 60.

⁸ Zolla E. The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1973. – 312 p.

⁹ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. VI.

adabiyot durdonalari mashhurligini, ahamiyatini shu kunga qadar saqlab qoldi.

1-jadval

Badiiy adabiyotda aks etgan hindular obrazi tasnifi

Helena Tabur-Jo‘gi	1. Hissiz hindular (<i>the flat Indian</i>) 2. Jangchi hindular (<i>the warrior</i>) 3. Do‘sst va sherik (<i>the mentor</i>) hindular 4. Ichkilikbozlikka berilgan (<i>the political bum</i>) hindular 5. O‘qimishli, ishbilarmon, tadbirkor va haqparvar (<i>White Collar Redskin</i>) hindular
L.N. Kotton	6. Qonga tashna (<i>bloodthirsty</i>) hindular obrazi
A. Moniz	7. Dono, shaman (avliyo) tipidagi hindular
Mazkur tadqiqotda	8. Tabib - Chingachguk 9. Tabiatsevar - Chingachguk, Unkas, Hard-Hat 10. Sardor va boshqaruvchi - Chingachguk, Magua, Hard-Hat, Mahtori, Rivenok 11. Qahramon – Unkas 12. Mard dushman – Mahtori, Rivenok Hindu ayollari: go‘zal, sadoqatli, dovyurak, rashkchi

Bobning “*Ideallashgan hindular obrazi aks etgan badiiy asarlar tadqiqi*” deb nomlangan ikkinchi faslida ijobjiy hindu obrazlari sababli keng ko‘lamdagi kitobxonlar e’tiborini jalb etgan adabiyot durdonalari haqida yoritiladi.

Genri Uodsvort Longfello (1807-1882) nomi hindularni tarannum etgan shoirlar orasida doimo birinchi bo‘lib turadi. Uning qalamiga mansub “Hayavate qo‘shig‘i” (“The song of Hiawatha”) (1855) she’ri shoirning shoh asari hisoblanib unda hindular madh etiladi. Bu she’rda qizil tanli hindularni sevimli obrazga aylantirgani shoir tabiatidagi mehribonlik va olivjanoblikni ko‘rsatadi¹⁰. Darhaqiqat, obraz yaratishda yozuvchining voqelikka munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Hayavate obrazi epik she’rdagi qahramon bo‘lib, she’riy asarda hindular qabilasi kamol topishi uchun ularga ta’lim beradi va yo‘lboshchilik qiladi.

Hindularning qahramonlik obrazlari bilan boyitilgan mashhur asarlardan yana biri yozuvchi Helen Hant Jekson (1832-1885) tomonidan yozilgan “Ramona” (1884) romanidir. “Ramona” romanida shotland yarim hindu yetim qiz Ramona va hindu yigit Aleksandro o‘rtasidagi muhabbat hamda ular o‘rtasidagi turmushning

¹⁰ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. 190.

achchiq qismati tasvirlangan. Romanda Kaliforniyada yashaydigan hindu qabilalari hayoti aks etadi. Ushbu romanni yozish uchun Helen Hant Jekson 1883-yilning bahorida hindu qabilalari yurtiga borib ularni o‘rganadi. “Ramona” asari esa bu tashrifning badiiy natijasi bo‘ldi¹¹. Jekson hayoti davomida hindularning haq-huquqlari uchun kurashib yashagan. Bu masalada ko‘p bora hukumatga ham murojaat bilan chiqqan.

Hindularning adabiyotda namoyon bo‘lishida dastlabki va eng muhim mualliflik asarlaridan biri bu Kapitan Jon Smis (1580-1631) tomonidan yozib qoldirilgan Pokahontas afsonasidir. Bu afsona keyinchalik yaratilgan hindular tasvirlangan roman, she’r va sahma asarlari uchun material bo‘lib xizmat qilgan¹². Chunki shu afsona sababli hindular haqidagi ijobiy qarashlar shakllana boshlagan.

Hindular haqida yozilgan yana bir betakror asarlardan biri Fenimor Kuperning “Vish-ton-vish qayg‘usi” (“The wept of wish-ton-wish”) (1829) asaridir. Bu asarda yozuvchi Kuper murakkab hindu obrazini yaratgan¹³. Hindu yigit Konanchet Rusni o‘g‘irlashi orqali bir qarashda o‘quvchida salbiy taassurot uyg‘otsa, Konanchet va Rus o‘rtasidagi sadoqat hamda mehr-muhabbat sababli bu obraz ijobiylik kasb etadi.

Lidiya Mariya Chayld (1802-1880) qizil tanli hindular haqida “Hobomak: qadim davr ertagi” (“Hobomak: A tale of early times”) asarini yozgan. Yozuvchi bu asarning kirish qismida “Hobomak” asari J.F.Kuperning “Chingachkuk fojiasi” asarining uning qalamida yaratilgan versiyasi ekanligini ta’kidlaydi. Chunki bu ikkala asarda ham hindularning qahramonlarcha hayot tarzining vayron qilinishga doir voqeliklar tasvirlangan¹⁴. Xususan, L.M.Chayldning qalbidagi insonparvarlik hissi uni yozuvchi sifatida hindularni o‘zining “Hobomak” asarida oliv inson darajasida tasvirlashiga turki bo‘ldi, ya’ni hindularga xos bo‘lgan sadoqat yozuvchining mazkur asarida ustuvorlik kasb etdi.

Yozuvchi Vashington Irving qalamiga mansub “Preriyaga safar” (“A tour on the Prairies”) (1835) asari adibning hindular maskaniga qilgan tashrifi taassurotlariga asoslanib yaratilgan hindular haqidagi shohasarlardan hisoblanadi. “Preriyaga safar” asarining kirish qismida Irving bu kitob uning 1832-yilda g‘arbda qilgan bir oylik sayohatidan barcha kitobxonlarning undan kutganlariga javob tariqasida yozilganini aytadi¹⁵. Chunki Irving hindular haqidagi bu asarini yozish uchun hindular yashaydigan hududga tashrif buyurgan va fakt to‘plagan.

Hindular haqida yaratilgan dramalar ham adabiyotda o‘z o‘rniga ega. Mashhurlikning cho‘qqisiga chiqqan hindular haqidagi dramalardan biri Jon Augustis Stoun (1801-1831) tomonidan yaratilgan “Metamora” dramasidir.

¹¹ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. 250.

¹² Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. 1.

¹³ Peprnik M. Cooper’s Indians: Typology and Function // J.Chovanec (Ed.). Theory and Practice in English Studies: Proceedings from the 8th Conference of British, American and Canadian Studies (Vol. 4. – P. 130). – Brno: Masaryk University, 2005.

¹⁴ Pearce R.H. Savagism and civilization: A study of the Indian and the American mind. – Baltimore, MD: John Hopkins Press, 1977. – 275 p.

¹⁵ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. 53.

Asar qahramoni hindu yigit Metamora oliyjanob kishi sifatida tasvirlanadi¹⁶. Ya’ni bu asarda ham hindular ideallashgan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

“Meyni o‘rmonlari” (“The Maine woods”) (1864) asari yozuvchi Genri David Toro (1817-1862)ning hindular eng to‘liq ko‘rinishda tasvirlangan asarlaridandir. Asarga adibning 1846-1857-yillarda Meyni o‘rmonlariga qilgan safari asos qilib olingan. Bu safar davomida Toroga Joy Pollis ismli hindu yo‘lboshchilik qiladi. “Meyni o‘rmonlari” asarining bosh qahramoni ham Joy Pollis bo‘lib, yozuvchi bu asarni hindu hamrohiga bag‘ishlab yozgan¹⁷. Penobskot qabilasidan bo‘lgan Joy Pollis safar davomida Toroni zamondosh hindularning ajoyib qobiliyatları, xulq-atvorları va hayot tarzları bilan tanishtiradi¹⁸. Aslida, asar yozuvchining hindu hamrohiga bag‘ishlanganligi ham o‘ziga xoslik kasb etadi.

1851-yilda chop etilgan “Mobi Dik” (“Moby-Dick”) asarida hindular o‘zgacha ruhdagi obrazlarda kashf etilgan. Asardagi hindu Tashtego obrazi kit ovlashda va ko‘rish sezgisining ustuvorligi bilan namoyon bo‘ladi.

Bobning “Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazining yaratilish omillari” deb nomlangan uchinchi fasli Amerika adabiyotida tarixiy roman janrining asoschisi va dastlabki ijobiy hindu obrazlarini yaratgan ijodkorlardan bo‘lgan Fenimor Kuper, uning ijodida mahalliy hindular obrazining ahamiyati, bu obrazlarga yozuvchining munosabati va adibga ta’sir etgan omillarga bag‘ishlanadi.

Amerikalik adabiyotshunos Albert Keyzer o‘zining “Hindular Amerika adabiyotida” (“The Indian in American Literature”) kitobida J.F.Kuper haqida Amerikadagi hindularni dunyoda hech kim Kuperchalik ko‘p va xo‘p tasvirlamaganini ta’kidlab o‘tadi¹⁹. Darhaqiqat, Kuperning 11ta asarida hindular muhim ahamiyat kasb etgan. Ularga “Ko’n paypoq ertaklari” (“The Leatherstocking Tales”) pentalogiyasiga kiruvchi “Chingachguk fojiasi” (“Pioneers”) (1823), “So‘nggi Mohikan” (“The Last of the Mohicans”) (1826), “Preriya” (“The Prairie”) (1827), “Izquvar” (The Pathfinder”) (1840), “Ovchi” (“The Deerslayer”) (1841) va shuningdek “Kichik Sahifa” trilogiyasida mujassamlashga “Satenstoy” (“Satanstoe”) (1845), “Zanjirband” (“The Chainbearer”) (1845), “Qizil tanlilar” (“The Redskins”) (1846) va yana “Eman teshiklari” (“Oak openings”) (1848), “Vish-ton-vish qayg‘usi” (“The wept of wish-ton-wish”) (1848) va “Uyandot” (“Wyandotte”) (1843) asarlari kiradi.

Amerikalik adabiyotshunos Maykl Peprnik Kuper ijodini o‘rganar ekan, uning asarlaridagi hindular ko‘p hollarda oq tanlilarga do‘s, hamroh sifatida namoyon bo‘lganligini aytib o‘tadi. Bu esa hindularning oq tanlilarga so‘zsiz bo‘ysunishi yoki ularni har qanday holatda qabul qilishi emas, balki hindularning burchga sadoqatliligi, ezgu qadriyatlari va kuchli ahloqiy fazilatlarini ko‘rsatib

¹⁶ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Metamora%3B_or,_The_Last_of_the_Wampanoags.

¹⁷ Pearce R.H. Savagism and civilization: A study of the Indian and the American mind. – Baltimore, MD: John Hopkins Press, 1977. – P. 149.

¹⁸ Black N.B., Weidman A.S. White on Red: Images of the American Indian. – New York: Associated Faculty Press Inc., 1976. – p. 265.

¹⁹ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – p. 105.

berishini alohida ta'kidlaydi²⁰. Bu esa yozuvchining hindu xalqlariga bo'lgan hurmati bilan bog'liq. Kuper asarlaridagi hindular faqatgina insonlarga ko'rsatiladigan oliy fazilatlar bilan cheklanib qolmaydi.

Mahdiadagi Monastir universitetida faoliyat olib borayotgan Sabri Mnassar o'rganishlari natijasi Kuper hindular obrazini har jihatdan ochib berganligini e'tirof etadi. Uning asarlarida yaxshi hindularni ham yomon hindularni ham ko'rishimiz mumkin. Yaxshi hindular Kuper asarlarida mahoratlari jangchilar, halol va vijdonli kishilar sifatida mukammallik darajasiga ko'tarilsa, yomon hindular qonxo'r va vaxshiy kabi sifatlar bilan ochib berilgan²¹. Darhaqiqat, Kuper bir roman doirasida yaxshi hindularni ham, yomon hindularni ham tasvirladi. Bu esa uning obraz yaratishdagi o'ziga xos mahorat uslubi bo'lib xizmat qildi. Kuper "Ko'n paypoq ertaklari" turkumiga kiruvchi pentalogiyasida hindularning yashash joylari va hayot tarzini ifodalar ekan, bu bilan o'zining tabiatga bo'lgan e'tiborini ko'rsata olgan ilk Amerikalik yozuvchi sifatida e'tirof etilishini Keyzi Vuntu o'zining Kuper haqidagi ilmiy izlanishlarida alohida ta'kidlab o'tadi²². Chindanda, yozuvchi deyarli barcha asarlarida tabiat effektidan unumli foydalangan.

Dissertatsiyaning “«Ko'n paypoq ertaklari» pentalogiyasida hindular obrazi asosida shakllangan mazmun va g'oyalar” nomli ikkinchi bob uch fasldan iborat bo'lib, unda F.Kuper qalamiga mansub “Ko'n paypoq ertaklari” pentalogiyasi poetikasi, asarda ilgari surilgan irqlararo do'stik va sevgi rishtalari mavzusi, shuningdek, beshlik romanlarda aks etgan murakkab hindular obrazi tahliliga bag'ishlanadi.

Bobning “«Ko'n paypoq ertaklari» asari poetikasi” deb nomlangan birinchi faslda roman pentalogiya, poetika va uning me'yorlari, pentalogiyadagi beshta romanda hindu obrazlarining ahamiyati, romanlarning o'ziga xosligi kabi jihatlar xususida so'z boradi.

Ma'lumki, romandagi epik xarakterlar tasviri beshta kitobda yakunlansa, roman pentalogiya deb yuritiladi²³. “Ko'n paypoq ertaklari” asari ham pentalogiya tipidagi roman hisoblanib, “Chingachguk fojiasi” (“The Pioneers”) romani beshta romanning birinchisi sifatida 1823-yilda chop etilgan. Aslida voqealar rivoji va yillar sarhisobiga ko'ra “Chingachguk fojiasi” bu beshtalik romanlar turkumidagi to'rtinchi roman hisoblanadi²⁴. Bu romanda asar qahramonlari Natti Bampu, Chingachguk va Oliver Edvardslarning har xil syujetlar doirasidagi ovchilik hamda merganlik mahorati, ulardag'i vatanga muhabbat hissi, sadoqat va vafodorlik

²⁰ Peprník M. Assimilating American Indians in James Fenimore Cooper's Novels? // Prague Journal of English Studies. – 2016. – № 5(1). – p. 111.

²¹ Mnassar S. The Americanization of conventional gothic elements in James Fenimore Cooper's The Pathfinder // International Journal of Research in English, 2021. – № 3 (1). – P. 5.

²² Wuntu C.N. James Fenimore Cooper and the idea of environmental conservation in The Leatherstocking Tales (1823-1841) // Rubikon: Journal of Transnational American Studies, 2014. – № 1 (2). – P. 28.

²³ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazriyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 215.

²⁴ Keiser A. The Indian in American literature. – New York: Oxford University Press, 1933. – P. 132.

tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan do‘stlik rishtalari, mardlik va jasoratning eng cho‘qqisi eng chiroyli tarzda badiiy qalamda chizib berilgan.

Ingliz adabiyotshunosi J.D. Manly Kuperning “Ko‘n paypoq ertaklari” pentalogiyasidagi romanlarni davriy jihatdan ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh dastlabki Ko‘n paypoq romanlari (The early Leather-Stocking novels) bo‘lib, bu guruhga turkumdagи “Chingachguk fojiasi”, “So‘nggi Mohikan” va “Preriya” romanlari kiradi. Bu uchala roman ketma-ketlikda to‘rt yil – 1823-1827-yillar oralig‘ida yozilgan. Ikkinci guruh keyingi yillardagi Ko‘n paypoq romanlari (The later Leather-Stocking novels) bo‘lib, ularga “Izquvar” va “Ovchi” asarlari kiradi. Bu ikki asar dastlabki romanlar chop etilgandan so‘ng o‘n uch yil o‘tib yaratilgan²⁵. Ya’nikim pentalogiyaning uchinchi romani “Preriya” 1927-yilda chop etilgan bo‘lsa, to‘rtinchи roman “Izquvar” o‘n uch yillik tanaffusdan so‘ng 1840-yilda nashr etilgan, beshinchi roman “Ovchi” esa 1841-yilda yaratilgan bo‘lib, pentalogiyani yakunlovchi asar hisoblanadi.

Pentalogiyadagi har bir asar mavzu va g‘oyasi, obrazlar tizimi, voqealar rivojiga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Romanlardagi turlicha shakllantirilgan syujetlar hindu obrazlarining ko‘plab xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Pentalogiyaning birinchi asarida bitta hindu obrazi namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ikkinci romanda ularning soni va xususiyatlarining ortib borishi ham ko‘payadi. Beshinchi romanga kelib hindulardan tarkib topgan alohida shaxs obrazlari va qabilalar yetarlicha ko‘payib boradi.

Bobning ikinchi fasli “Pentalogiyada irqlararo do‘stlik va sevgi rishtalari mavzusi” deb nomlanib, unda hindularning boshqa irq vakillari bilan munosabatlari yoritiladi. Pentalogiyada irqlararo do‘stlik va sevgi munosabatlari hindularga xos eng ijobiy xislatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

2-jadval

Pentalogiyada irqlararo yaqinlik munosabatlari tasnifi

	Romanlar	Irqlararo yaqinlik munosabatlari shakli
1	“Chingachguk fojiasi”	<ul style="list-style-type: none"> • Chingachguk – Natti (do‘stlik)
2	“So‘nggi Mohikan”	<ul style="list-style-type: none"> • Chingachguk – Unkas-Natti (do‘stlik) • Unkas – Kora (sevgi)
3	“Preriya”	<ul style="list-style-type: none"> • Hard – Hat – Natti (do‘stlik)
4	“Izquvar”	<ul style="list-style-type: none"> • Chingachguk – Natti (do‘stlik) • Dyu-of-Jun – Mebel (ayollar do‘stligi) • Natti – Dyu-of-Jun (hamdardlik)

²⁵ Manly J.D. The Leatherstocking Tales and Indian Removal: A study of James Fenimore Cooper’s Leatherstocking Tales in the light of United States policy towards the American Indian: MA ... thes. – Vancouver, 1976. – P. 91.

5	“Ovchi”	• Chingachguk – Natti (do‘stlik)
---	---------	----------------------------------

Ko‘rinib turibdiki, pentalogiyaning har bir romanida irqlararo yaqinlik munosabatlarining guvohi bo‘lamiz. Xususan, bиринчи asarda oq tanli Natti va hindu Chingachguk o‘rtasidagi do‘stlik rishtasi tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi romanda Natti, Chingachguk va Chingachgukning o‘g‘li Unkas o‘rtasidagi ota-bola kabi yaqinlik munosabatlarini, shuningdek, hindu Unkas va aralash irq vakili Kora o‘rtasidagi sevgi munosabatini ko‘ramiz. “Preriya” romanida irqlararo do‘stlik rishtasi Natti va pavni qabilasi sardori Hard-Hat o‘rtasida kechsa, то‘ринчи va beshinchi romanlarda yana Natti hamda Chingachguk o‘rtasidagi do‘stlik rivojlanib boradi.

Bobning uchinchi fasli *“Hindu murakkab obraz: qahramon, sardor va mard raqib”* deb nomlangan bo‘lib, unda pentalogiyadagi murakkab hindular obrazi asosiy e’tibor markazida turadi.

